

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Amaliy matematika va informatika kafedrası o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIMDA FOYDALANISH UCHUN SODDA SLAYDLI ROLIKLAR TAYYORLASH USULI: POWERPOINT DASTURI MISOLIDA

Annotatsiya: O'nggi yillarda ta'lim muassasalarida keng foydalanish uchun Respublikamizda multimedia ta'lim vositalarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, shunday ta'lim manbalari Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi"da tayyorlanmoqda. Ikkinchi manba, Internet ashyolari hisoblanadi. Internet veb-sahifalariga turli sohdlar bo'yicha, shu jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ko'plab multimedia vositalari joylashtirilgan. Tegishli veb-saytlardan multimedia vositasini topib, ulardan MTMlarining ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tayanch so'zlar: Ta'lim tizimi, kompyuter ekrani, ta'lim -tarbiya jarayoni, multfilm roligi, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari.

Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallarstatik xarakterga yega. Masalan, tarbiyachi A harfini an'anaviy usulda o'rgatishmobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi. Mutimedia vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb yetadi.

Hozirgi kunda turli xil multimediali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim -tarbiya jarayoniga tatbiq yetish jadal rivojlanayapti. MTMlarda ta'lim- tarbiya jarayonida ulardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi- pedagoglar multimedia vositalarini multimedia texnol ogiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimedia vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir MTM tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturlar va multimedia vositalarini qo'llash mumkin.

MTM bolalari uchun tayyorlanadigan multimedia vositalari ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifikasiyali va jozibali bo'lishi shart.

So'nggi yillarda ta'lim muassasalarida keng foydalanish uchun Respublikamizda multimedia ta'lim vositalarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, shunday ta'lim manbalari Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi"da tayyorlanmoqda. Ikkinchi manba, Internet ashyolari hisoblanadi. Internet veb-sahifalariga turli sohdlar bo'yicha, shu jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ko'plab multimedia vositalari joylashtirilgan. Tegishli veb-saytlardan multimedia vositasini topib, ulardan MTMlarining ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Yuqorida aytilganlarga qaramay, Respublika MTMlarida foydalanishga mo'ljallangan tayyor multimedia vositalari yyetarli yemas. Shuning uchun, har bir MTMda tarbiyachining o'zi multimedia vositalarini tayyorlashi va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishi maqsadga muvofiq. Quyida MTMlarida multimedia vositalarining ba'zi turlarini tayyorlash va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari ustida to'xtalamiz.

Quyida biz maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari uchun sodda multfilm roliklarini tayyorlashning oson usulini ko’rsatib o’tamiz.

Buning uchun Paint grafik muharriri va Ms Power Point dasturlarini bilish kifoya. Bugungi kunda bu dasturlardan har bir zamonaviy pedagog xodim foydalana oladi deb o’ylayman.


Multfilm roligini tayyorlashdan oldin uning qahramonlari Paint grafik muharririda chizib tayyorlab olinadi va fon uchun kerakli rasm tanlab olinadi.

Power Point dasturi ishga tushirilib slaydga fon rasmi va kerakli qahramonlar mos joylarga qo’yiladi, hamda tayyor bo’lgan slayddan dublikat olinadi.




Barcha slaydlar shu tarzda tayyorlanib, undagi qahramonlar tegishli joylarga joylashtiriladi. Bu slaydlar multfilm roligimiz uchun kadrlar bo’lib xizmat qiladi.

Slaydlar tayyor bo’lgandan so’ng ularga tegishli animatsiyalar qo’yiladi.



Slaydlar va undagi animatsiyalar ijro etilishi uchun avtomatik vaqt sozlamalari o’rnatiladi.



Natijada avtomatik ijro yetiladigan slaydlardan iborat qisqa metrajli roligimiz tayyor bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. Р.Р.Боқиев, А.О.Матжонов, Информатика, “Ўқитувчи”, Тошкент, 2010й.
2. А.И.Усмонов, Ф.Д.Бахрамов, Компьютер технологиялари асослари. Тошкент, 2010.
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. Москва АСАДЕМ' А 2003.